

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

UNJUST ENRICHMENT IN CIVIL LAW: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

Akayeva Marapat Abduxalikovna

Head of the Department of "Civil and Economic Procedural Law"

Namangan State University,

Candidate of Legal Sciences,

Associate Professor

E-mail: akayeva03091960@gmail.com

Abstract. The article provides a comprehensive scholarly analysis of the institution of unjust enrichment in civil law, revealing its theoretical and legal foundations as well as the specific features of its regulation in national legislation and foreign legal systems. Particular attention is paid to the norms of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan governing the concept, conditions of occurrence, and legal consequences of unjust enrichment.

In addition, a comparative legal analysis of the legislation and judicial practice of the Russian Federation, Germany, France, and England is conducted, which makes it possible to identify both common characteristics and distinctive features of the regulation of this legal institution. The research is based on formal-legal, comparative, and systemic methods of legal analysis.

The findings substantiate the necessity of improving national civil legislation by clarifying the legal nature of unjust enrichment and enhancing the mechanisms of its application, taking into account relevant foreign experience. The article is intended for researchers, legal scholars, and legal practitioners specializing in civil law.

Keywords: unjust enrichment, civil law, conduction obligation, restitution, foreign experience.

FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Akayeva Marapat Abduxalikovna

Namangan davlat universiteti

"Fuqarolik va iqtisodiy protsessual huquq" kafedrası mudiri,

yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish institutining nazariy-huquqiy asoslari, uning milliy qonunchilikdagi o'ri hamda xorijiy davlatlar tajribasi ilmiy tahlil qilinadi. Asossiz boylik orttirish fuqarolik-huquqiy munosabatlarda adolat prinsipini ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari asosida asossiz boylik orttirish tushunchasi, uning vujudga kelish shartlari va huquqiy oqibatlari yoritiladi. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya va Angliya qonunchiligida mazkur institutning tartibga solinishi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy tahlil natijasida milliy qonunchilikda asossiz boylik orttirishga oid ayrim normalarni takomillashtirish zarurati asoslantirildi hamda xorijiy tajribadan foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Maqola xalqaro ilmiy jamoatchilik uchun ahamiyatli bo'lib, fuqarolik huquqi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchi yuristlar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: asossiz boylik orttirish, fuqarolik huquqi, kondiktsion majburiyat, restitutsiya, xorijiy tajriba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N45>

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi mulkiy huquqlarni himoya qilishning samarali mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu ma'noda, asossiz boylik orttirish instituti fuqarolik huquqining muhim va universal institutlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu institut shaxsning qonuniy asoslarsiz mulkiy manfaatga ega bo'lib qolishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, huquqiy adolatni tiklash vazifasini bajaradi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida asossiz boylik orttirish, odatda, bir shaxsning ikkinchi shaxs hisobidan qonuniy asoslarsiz boyishi natijasida vujudga keladigan majburiyat sifatida talqin qilinadi[1]. Bunday holatlarda boyib ketgan shaxs o'z qo'liga kiritgan mulkni yoki mulkiy qiymatni haq egasiga qaytarish majburiyatini oladi. Mazkur institut fuqarolik huquqida shartnoma va delikt majburiyatlaridan farq qiluvchi mustaqil huquqiy toifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida asossiz boylik orttirish masalalari Fuqarolik kodeksining alohida bobida tartibga solingan bo'lib, unda asossiz ravishda olingan yoki saqlab qolingan mulkni qaytarishning umumiy qoidalarini belgilangan[2]. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur normalarni qo'llash jarayonida turli xil talqinlar va bahsli holatlar yuzaga kelmoqda. Bu esa institutning nazariy asoslarini yanada chuqur o'rganishni va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi. Xorijiy davlatlar huquq tizimlarida asossiz boylik orttirish instituti turlicha yondashuvlar asosida shakllangan. Masalan, Germaniya fuqarolik huquqida mazkur institut restitutsiya prinsipi asosida qurilgan bo'lsa, Angliya huquq tizimida u mustaqil doktrina sifatida rivojlangan[3]. Fransiya huquqida esa asossiz boylik orttirish "enrichissement sans cause" konsepsiyasi orqali tartibga solinadi. Ushbu farqlar milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish institutining nazariy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish, milliy va xorijiy tajribani qiyosiy o'rganish hamda O'zbekiston qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun asossiz boylik orttirish tushunchasi, uning huquqiy belgilari va turlari hamda amaliyotda qo'llanish muammolari tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Asossiz boylik orttirish tushunchasi va huquqiy tabiati

Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida fuqarolik huquqi nazariyasida qo'llaniladigan umum-ilmiy va maxsus huquqiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, asossiz boylik orttirish institutining mohiyatini ochib berishda dialektik metod qo'llanilib, huquqiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi va rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv asossiz boylik orttirishning shartnoma va delikt majburiyatlaridan farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi[4]. Shuningdek, tadqiqot davomida formal-yuridik metod qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda xorijiy davlatlar fuqarolik qonunchiligi normalarining mazmuni, huquqiy konstruksiyasi va ichki mantiqiy o'rganildi. Bu usul huquqiy normalarni aniq va tizimli talqin qilishga xizmat qildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali esa milliy qonunchilikdagi asossiz boylik orttirishga oid qoidalar Germaniya, Fransiya, Rossiya va Angliya huquq tizimlaridagi tegishli institutlar bilan solishtirib tahlil qilindi[5].

Tadqiqotda, shuningdek, tizimli tahlil usuli qo'llanilib, asossiz boylik orttirish instituti fuqarolik huquqi tizimidagi boshqa institutlar bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Sud amaliyoti materiallarini tahlil qilish orqali mazkur institutning amalda qo'llanilishida

uchrayotgan muammolar aniqlandi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asosli va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minladi.

Asossiz boylik orttirish tushunchasi va huquqiy tabiati

Fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish shaxsning qonuniy asoslarsiz ravishda boshqa shaxs hisobidan mulkiy manfaatga ega bo'lishi natijasida vujudga keladigan huquqiy holat sifatida ta'riflanadi. Mazkur institutning asosiy vazifasi fuqarolik muomalasida adolat prinsipini ta'minlash va mulkiy muvozanatni tiklashdan iborat[6]. Shu sababli asossiz boylik orttirish majburiyati shartnoma yoki huquqbuzarlikka emas, balki boyish faktining o'ziga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, qonuniy yoki shartnomaviy asoslarsiz olingan yoki saqlab qolingani mulk asossiz boylik hisoblanadi hamda u qaytarilishi lozim[7]. Bunda qonun boyishning sabablarini emas, balki natijasini — ya'ni bir shaxsning boshqasi hisobidan mulkiy foyda olganligini hal qiluvchi mezon sifatida belgilaydi. Bu holat asossiz boylik orttirishni fuqarolik-huquqiy javobgarlikning o'ziga xos shakli sifatida namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda asossiz boylik orttirishning huquqiy tabiati borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim mualliflar uni mustaqil majburiyat turi deb hisoblasa, boshqalar uni umumiy adolat prinsipining huquqiy ifodasi sifatida talqin qiladi[8]. Biroq ustuvor nuqtai nazarga ko'ra, asossiz boylik orttirish fuqarolik huquqida shartnoma va delikt majburiyatlaridan farq qiluvchi alohida kondiktсион majburiyatni tashkil etadi.

Asossiz boylik orttirishning huquqiy tabiatini belgilashda uning quyidagi asosiy belgilari ajratib ko'rsatiladi: birinchi, boyish faktining mavjudligi; ikkinchi, mazkur boyishning qonuniy asoslarga ega emasligi; uchinchi, boyish boshqa shaxs hisobidan amalga oshgan bo'lishi; to'rtinchi, mulkiy muvozanatning buzilishi. Mazkur belgilar majmui mavjud bo'lgan taqdirda asossiz boylik orttirish majburiyati vujudga keladi[9]. Shu bilan birga, asossiz boylik orttirish instituti fuqarolik huquqida restitutsiya mexanizmi bilan chambarchas bog'liq. Restitutsiya boyib ketgan shaxsni oldingi mulkiy holatiga qaytarishga qaratilgan bo'lib, bu fuqarolik huquqining kompensatsion funksiyasini amalga oshiradi. Ushbu jihat asossiz boylik orttirishni mulkiy huquqlarni himoya qilishning samarali vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Asossiz boylik orttirishning turlari va vujudga kelish shartlari

Fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish turlarini aniqlash mazkur institutni to'g'ri qo'llash va huquqiy oqibatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Qonunchilik va ilmiy adabiyotlarda asossiz boylik orttirish, odatda, mulkni asossiz olish va mulkni asossiz saqlab qolish shakllarida namoyon bo'lishi qayd etiladi[10]. Ushbu tasnif mulkiy manfaatning qachon va qanday sharoitda vujudga kelganini aniqlash imkonini beradi. Asossiz ravishda mulk olish holatida boyib ketgan shaxs boshqa shaxsga tegishli bo'lgan pul mablag'lari, ashyolar yoki mulkiy huquqlarni qonuniy asoslarsiz qo'lga kiritadi. Bunday holatlar ko'pincha xato to'lovlar, noto'g'ri hisob-kitoblar yoki bekor qilingan shartnoma asosida amalga oshirilgan ijrolar natijasida yuzaga keladi[11].

Mazkur holatlarda mulkni olgan shaxsning aybi mavjud bo'lishi shart emas, chunki asossiz boylik orttirish javobgarligi aybdan qat'i nazar qo'llaniladi. Mulkni asossiz saqlab qolish esa shaxsning qonuniy asoslar mavjud bo'lmagan holda o'z ixtiyorida mulkiy qiymatni saqlab qolishi bilan ifodalanadi. Masalan, ijara shartnomasi bekor qilinganidan keyin mulkdan foydalanishni davom ettirish yoki topilgan ashyoni qonuniy egasiga qaytarmaslik kabi holatlar

mazkur turga kiradi[12]. Bunda ham mulkiy muvozanatning buzilishi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Asossiz boylik orttirishning yana bir turi xizmatlar yoki ishlar natijasida boyish hisoblanadi. Ayrim holatlarda shaxs qonuniy asoslarsiz ko'rsatilgan xizmat yoki bajarilgan ish hisobidan mulkiy manfaatga ega bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda xizmat ko'rsatuvchi shaxs o'z mehnati uchun kompensatsiya talab qilish huquqiga ega bo'ladi[13]⁴. Ushbu holatlar fuqarolik muomalasida ko'p uchrab, sud amaliyotida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Asossiz boylik orttirish majburiyati vujudga kelishi uchun qator shartlarning bir vaqtda mavjud bo'lishi talab etiladi. Birinchidan, bir shaxsning mulkiy jihatdan boyishi; ikkinchidan, ikkinchi shaxsning tegishli ravishda zarar ko'rish; uchinchidan, boyish bilan zarar o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi; to'rtinchidan, boyishning qonuniy yoki shartnomaviy asoslarga ega emasligi. Ushbu shartlardan biri mavjud bo'lmagan taqdirda asossiz boylik orttirish majburiyati vujudga kelmaydi. Shu bilan birga, qonun ayrim holatlarda asossiz boylik orttirish sifatida baholanmaydigan vaziyatlarni ham belgilaydi. Xususan, qonuniy asosda amalga oshirilgan ijroalar, axloq normalariga muvofiq beriladigan xayr-ehsonlar yoki da'vo muddati o'tib ketgan talablar bo'yicha olingan mulkiy qiymatlar qaytarilishga majbur emas[14]. Bu qoidalar fuqarolik muomalasida barqarorlik va huquqiy aniqlikni ta'minlashga qaratilgan. Natijada, asossiz boylik orttirishning turlari va vujudga kelish shartlarini aniq belgilash mazkur institutni to'g'ri qo'llash, sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish hamda fuqarolik huquqida adolat prinsipini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asossiz boylik orttirishning huquqiy oqibatlari va qaytarish tartibi

Asossiz boylik orttirish majburiyati vujudga kelgan taqdirda boyib ketgan shaxs zimmasiga olingan yoki saqlab qolingan mulkiy qiymatni haq egasiga qaytarish majburiyati yuklanadi. Ushbu majburiyatning huquqiy mazmuni fuqarolik huquqida kompensatsion xarakterga ega bo'lib, u mulkiy muvozanatni tiklashga qaratilgan. Qaytarish tartibi va hajmi asossiz boylikning xususiyati hamda uning saqlanish holatiga qarab belgilanadi. Qonunchilikka muvofiq, asossiz ravishda olingan mulk, odatda, naturada qaytarilishi lozim. Agar mulkni naturada qaytarish imkoni bo'lmasa, uning qiymati pul shaklida qoplanadi[15]. Bunda mulkning qiymati qaytarish vaqtidagi bozor narxlari asosida aniqlanishi fuqarolik muomalasida adolat prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, boyib ketgan shaxs mulkdan foydalangani natijasida olgan daromadlarni ham qaytarishi shart.

Asossiz boylik orttirishning huquqiy oqibatlaridan biri foizlarni undirish masalasi bilan bog'liq. Agar boyib ketgan shaxs pul mablag'larini asossiz ravishda olgan bo'lsa, u ushbu mablag'lardan foydalangan davr uchun qonunchilikda belgilangan tartibda foizlar to'lashga majbur bo'ladi[16]. Bu qoida mulkiy manfaatning asossiz ravishda oshishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, fuqarolik huquqida iqtisodiy adolatni ta'minlaydi. Qonun boyib ketgan shaxsning halolligi yoki halol emasligiga qarab uning javobgarlik hajmini farqlaydi. Agar mulkni olgan shaxs asossiz boylik orttirganini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan bo'lsa, u mulkdan olgan faqat real daromadlarni qaytarish bilan cheklanadi. Biroq shaxs asossiz boylikni qasddan yoki bila turib saqlab qolgan taqdirda, u barcha daromadlarni, shu jumladan, olish mumkin bo'lgan foydani ham qoplashi lozim bo'ladi. Asossiz boylik orttirishda zararlarni qoplash masalasi ham muhim o'rin tutadi. Agar asossiz boylik orttirish natijasida haq egasiga qo'shimcha zarar yetkazilgan bo'lsa, ushbu zarar umumiy qoidalarga muvofiq qoplanishi

mumkin. Bu holat asossiz boylik orttirish va delikt javobgarligi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi[17].

Shu bilan birga, qonun ayrim holatlarda asossiz boylikni qaytarish majburiyatini istisno qiladi. Masalan, qonuniy asosda amalga oshirilgan ijrolar, axloq normalariga muvofiq berilgan mablag'lar yoki da'vo muddati o'tib ketgan talablar bo'yicha olingan mulkiy qiymatlar qaytarilmaydi[18]. Bu istisnolar fuqarolik muomalasida barqarorlikni ta'minlash va huquqiy munosabatlarning asossiz ravishda buzilishining oldini olishga qaratilgan. Natijada, asossiz boylik orttirishning huquqiy oqibatlari va qaytarish tartibini aniq belgilash fuqarolik huquqida mulkiy huquqlarni himoya qilishning samarali mexanizmini yaratadi hamda sud amaliyotida huquqni qo'llashda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlar huquqida asossiz boylik orttirish instituti (qiyosiy tahlil)

Asossiz boylik orttirish instituti ko'plab xorijiy davlatlar fuqarolik huquqida mustaqil yoki shartnoma va delikt majburiyatlarini to'ldiruvchi huquqiy mexanizm sifatida shakllangan. Ushbu institutning qiyosiy tahlili milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, turli huquq tizimlarida adolat prinsipining qanday ifodalanishini ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasi huquqida

Rossiya Federatsiyasi fuqarolik qonunchiligida asossiz boylik orttirish instituti Grajdanskiy kodeksning 1102–1109-moddalarida batafsil tartibga solingan. Unga muvofiq, qonuniy, shartnomaviy yoki boshqa huquqiy asoslarsiz olingan yoki saqlab qolingan mulk asossiz boylik hisoblanadi va qaytarilishi shart[19]. Rossiya huquqida mazkur institut mustaqil kondiksion majburiyat sifatida e'tirof etilib, aybning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Rossiya sud amaliyotida asossiz boylik orttirish bo'yicha da'volar keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa noto'g'ri to'lovlar, bekor qilingan shartnomalar va asossiz xizmatlar masalalarida qo'llaniladi. Bu holat institutning amaliyotda faol ishlayotganini ko'rsatadi[20].

Germaniya Federativ Respublikasi huquqida

Germaniya fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish instituti Bürgerliches Gesetzbuch (BGB)ning §812–§822 paragraflarida tartibga solingan. Germaniya huquq tizimida mazkur institut restitutsiya prinsipiga asoslangan bo'lib, asosiy maqsad — boyib ketgan shaxsni oldingi mulkiy holatiga qaytarishdan iborat[21]. Germaniya huquqida asossiz boylik orttirish “qonuniy asosning yo'qligi” mezonini orqali aniqlanadi va u shartnoma yoki delikt munosabatlarini to'ldiruvchi umumiy huquqiy konstruktsiya sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuv institutning nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilganini ko'rsatadi.

Fransiya huquqida

Fransiya fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish “enrichissement sans cause” doktrinasi asosida rivojlangan. Fransiya Fuqarolik kodeksida ushbu institut uzoq vaqt davomida sud amaliyoti orqali shakllangan bo'lib, keyinchalik qonunchilikda mustahkamlangan[22]. Fransiya huquqida asossiz boylik orttirishni aniqlashda beshta shart belgilanadi: boyish, zarar, sababiy bog'lanish, qonuniy asosning yo'qligi va boshqa huquqiy himoya vositasining mavjud emasligi. Bu institutni qo'llashda subsidiar xarakter ustuvor hisoblanadi.

Angliya huquq tizimida

Angliya umumiy huquq (common law) tizimida asossiz boylik orttirish mustaqil doktrina sifatida rivojlangan. “Unjust enrichment” konsepsiyasi sud pretsedentlari orqali

shakllanib, hozirgi kunda fuqarolik huquqiy da'volarning alohida toifasini tashkil etadi[23].Angliya huquqida asossiz boylik orttirish to'rtta asosiy element orqali aniqlanadi: boyish, da'vogar hisobidan boyish, adolatsizlik (unjust factor) va huquqiy himoya vositasining mavjud emasligi. Bu yondashuv institutning yuqori darajada moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Qiyosiy xulosalar

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, asossiz boylik orttirish instituti barcha huquq tizimlarida adolat prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq uning huquqiy konstruksiyasi va qo'llanish doirasi turlicha bo'lib, Germaniya va Rossiya huquqida normativ tartibga solish ustuvor bo'lsa, Angliya va Fransiyada sud amaliyotining roli katta ahamiyatga ega. Ushbu tajriba O'zbekiston fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishda hisobga olinishi lozim.

Muhokama. Asossiz boylik orttirish institutining milliy va xorijiy huquq tizimlaridagi qiyosiy tahlili mazkur institutning umumiy huquqiy maqsadlari bir xil ekanligini ko'rsatadi. Barcha ko'rib chiqilgan huquq tizimlarida u fuqarolik muomalasida adolat prinsipini ta'minlash, mulkiy muvozanatni tiklash hamda qonuniy asoslarsiz boyish holatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur institutni huquqiy tartibga solish usullari va uni qo'llash mexanizmlarida muayyan farqlar mavjud.O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida asossiz boylik orttirish instituti alohida bobda mustahkamlangan bo'lib, u kontinental huquq tizimiga xos normativ yondashuvni aks ettiradi. Biroq amaliyotda qonun normalarining umumiy va ayrim holatlarda mavhum ifodalanishi sudlarda turlicha talqin qilinishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, asossiz boylik orttirishni shartnomaviy yoki delikt majburiyatlaridan farqlash masalasida yagona yondashuvning mavjud emasligi huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Germaniya huquqida restitutsiya prinsipiga asoslangan yondashuv asossiz boylik orttirish institutining aniq va tizimli qo'llanilishini ta'minlaydi. Germaniya qonunchiligida "qonuniy asosning yo'qligi" tushunchasining aniq belgilab qo'yilgani sud amaliyotida huquqiy aniqlikni oshiradi. Bu tajriba milliy qonunchilikda ham asossiz boylik orttirishning huquqiy asoslarini yanada aniqlashtirish zaruratini ko'rsatadi[24].

Angliya huquqidagi "unjust enrichment" doktrinasini institutning evolyutsion rivojlanishini namoyon etadi. Sud pretsedentlariga asoslangan ushbu tizim asossiz boylik orttirish holatlariga moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Biroq bunday yondashuv kontinental huquq tizimiga to'liq mos kelmasligi mumkin. Shunga qaramasdan, adolatsiz boyish omillarini aniq belgilash tajribasi milliy qonunchilik uchun ilmiy jihatdan qiziqish uyg'otadi[25].

Fransiya huquqida asossiz boylik orttirishning subsidiar xarakteri uning qo'llanilishini cheklaydi va boshqa huquqiy himoya vositalari mavjud bo'lgan holatlarda mazkur institutga murojaat qilish imkonini istisno qiladi. Bu yondashuv fuqarolik huquqida da'volarning asossiz ko'payishining oldini olishga xizmat qiladi. Milliy qonunchilikda ham asossiz boylik orttirishning qo'llanilish doirasini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida asossiz boylik orttirish institutini takomillashtirishda xorijiy tajribadan oqilona foydalanish lozim. Xususan, qonuniy asos tushunchasini aniqlashtirish, asossiz boylik orttirishni boshqa majburiyat turlaridan farqlash mezonlarini belgilash hamda sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish zarur.

Xulosa. O'tkazilgan ilmiy tahlil fuqarolik huquqida asossiz boylik orttirish instituti fuqarolik muomalasida adolat va mulkiy muvozanatni ta'minlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Ushbu institut shartnoma va delikt majburiyatlaridan farq qiluvchi mustaqil huquqiy mexanizm sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy vazifasi qonuniy asoslarsiz ravishda vujudga kelgan mulkiy nomutanosiblikni bartaraf etishdan iborat. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida asossiz boylik orttirishga oid normalar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularni qo'llash jarayonida muayyan nazariy va amaliy muammolar saqlanib qolayotganini aniqladi.

Xususan, asossiz boylik orttirishni shartnomaviy yoki delikt majburiyatlaridan farqlash mezonlarining aniq belgilanmagani sud amaliyotida turlicha yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Xorijiy davlatlar huquq tizimlarining qiyosiy tahlili Germaniya va Rossiya qonunchiligida normativ aniqlik ustuvor ekanini, Angliya va Fransiya huquqida esa sud amaliyoti va doktrinaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ushbu tajribalar milliy qonunchilikni takomillashtirishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Amaliy takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida asossiz boylik orttirish tushunchasini aniqroq ta'riflash hamda "qonuniy asos" mezonini normativ jihatdan ochib berish maqsadga muvofiq.
2. Asossiz boylik orttirishni shartnoma va delikt majburiyatlaridan farqlash bo'yicha maxsus izoh yoki umumiy qoidalarni joriy etish sud amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlaydi.
3. Germaniya huquqida qo'llaniladigan restitutsiya prinsipini hisobga olgan holda, mulkni qaytarish tartibini takomillashtirish lozim.
4. Angliya huquqidagi "unjust enrichment" doktrinasi asosida asossiz boylik orttirish holatlarini baholash mezonlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish tavsiya etiladi.
5. Oliy sud plenumi qarorlari orqali asossiz boylik orttirishga oid sud amaliyotini umumlashtirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Imomov N. Fuqarolik huquqida majburiyatlar nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020. – B. 213–215.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent, 2024.
3. Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 560–565.
4. Алексеев С.С. Общая теория права. – М.: Норма, 2018. – С. 312–315.
5. Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 555–570.
6. Суханов Е.А. Гражданское право: в 4 т. – М.: Статут, 2019. – Т. 2. – С. 487.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1023-modda.
8. Брагинский М.И., Витруанский В.В. Договорное право. – М.: Статут, 2018. – С. 401–403
9. Imomov N. Fuqarolik huquqi. – Toshkent: TDYU, 2021. – B. 268–270
10. Суханов Е.А. Гражданское право: в 4 т. – М.: Статут, 2019. – Т. 2. – С. 490–492.
11. Брагинский М.И., Витруанский В.В. Договорное право. – М.: Статут, 2018. – С. 405–408.
12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1024–1025-moddalar.

13. Иоффе О.С. Обязательственное право. – М.: Юридическая литература, 2017.–С.376–379.
14. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1029-modda.
15. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1026-modda.
16. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 327-modda.
17. Суханов Е.А. Гражданское право. – М.: Статут, 2019. – Т. 2. – С. 495–497.
18. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1029-modda.
19. Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая). Ст. 1102–1109.
20. Суханов Е.А. Гражданское право. – М.: Статут, 2019. – Т. 2. – С. 500–503.
21. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). §812–§822.
22. Malaurie P., Aynès L. Les obligations. – Paris: Defrénois, 2018. – P. 620–625.
23. Virgo G. The Principles of the Law of Restitution. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 45–60.
24. Medicus D., Lorenz S. Schuldrecht I. – München: C.H. Beck, 2018. – S. 345–350.
25. 25.Virgo G. The Principles of the Law of Restitution. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P. 65–70.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).